

Rivojlanishda muammolari bo'lgan ilk yoshdagi bolalarning psizologik-pedagogik xususiyatlari

Malika Olim qizi Rozioqva
Ma'rifat Shuhratjon qiz Islomjonova
islomjonovamarifat@gmail.com
Namangan davlat pedagogika instituti

Annotatsiya: Mazkur maqolada rivojlanishda muammolari bo'lgan ilk yoshdagi bolalarning (0-3 yosh) rivojlanish jarayonlari, muammo belgilari, kelib chiqish sabablari va erta tashxisning ahamiyati yoritilgan. Bolaning jismoniy, nutq, bilish (kognitiv) hamda ijtimoiy-emotsional rivojlanishda uchraydigan kechikishlar misollar orqali bayon qilingan.

Kalit so'zlar: ilk yosh, rivojlanishdagi kechikish, defektolog, erta aralashuv, motorika, nutq rivojlanishi, sensor rivojlanish, kognitiv rivojlanish, ijtimoiy-emotsional rivojlanish, diagnostika, autizm

Psychological and pedagogical characteristics of early childhood children with developmental problems

Malika Olim kizi Rozioqva
Ma'rifat Shuhratjon kizi Islomjonova
islomjonovamarifat@gmail.com
Namangan State Pedagogical Institute

Abstract: This article highlights the developmental processes, signs of difficulties, causes, and the importance of early diagnosis in young children (0-3 years old) who have developmental problems. Examples are provided to explain delays that may occur in the child's physical, speech, cognitive, and social-emotional development.

Keywords: early childhood, developmental delay, defectologist, early intervention, motor skills, speech development, sensory development, cognitive development, social-emotional development, diagnostics, autism, developmental activities

Ilk yosh - bolaning jismoniy, aqliy, nutqiy va hissiy rivojlanishi eng faol kechadigan davrdir. Shu davrda bola atrof bilan muloqotga kirishadi, sensor tajribalar orqali dunyoni anglaydi va asosiy hayotiy ko'nikmalarni o'rganadi. Ba'zan turli

sabablar tufayli bola rivojlanish sur'ati tengdoshlarinikiga nisbatan sekinlashadi, bunday holat rivojlanishida muammo bo'lgan bolalar deb yuritiladi.

Rivojlanishdagi muammolarning asosiy belgilari

1. Jismoniy rivojlanishning sekinlashuvi , boshni kech ko'tarishi , o'tirish, emaklash, yurishda kechikish.
2. Nutq va aloqa ko'nikmalarida qiyinchiliklar, tovushlarga javob bermaslik, birinchi so'zlarni kech aytish, ko'rsatish va imo-ishoralardan kam foydalanish.
3. Kognitiv (aqliy) rivojlanishdagi qiyinchiliklar, oddiy topshiriqlarni tushunmaslik, sabab-oqibatni bog'lay olmaslik.
4. Ijtimoiy-emotsional rivojlanishdagi muammolar, ko'z bilan kontaktga bo'lmashlik, o'yinchoqlarga qiziqmaslik, tengdoshlariga yaqinlashmaslik.

Muammolar kelib chiqish sabablari:

Rivojlanishdagi kechikishlarga quyidagi omillar sabab bo'lishi mumkin, homiladorlik davrida infeksiyalar yoki stresslar, tug'ruq jarayonidagi asoratlar (kislorod yetishmovchiligi), irsiy omillar, nutq va muloqotga yetarli e'tibor berilmasligi, prematur (erta tug'ilgan) chaqaloqlar.[1]

Erta aniqlashning ahamiyati:

Ilk yoshdagi bolalarda rivojlanish muammolarini erta aniqlash juda muhim. 0-3 yosh davrida miya plastiklik darajasi yuqori bo'lgani uchun:

1. To'g'ri qo'llab-quvvatlash orqali ko'p kamchiliklarni bartaraf etish mumkin.
2. Bola kelajakda ijtimoiy hayotga tez moslashadi.
3. Nutq va bilish ko'nikmalari tez shakllanadi.

Rivojlanishda qiyinchilik bo'lgan bolalar bilan ishlashda eng muhim tamoyil - hamkorlik. Bola muammosini aniqlash, reja tuzish, mashqlarni uyda muntazam bajarish. Nutq, motorika, sensor rivojlantirish: qiziqarli o'yinlar orqali qo'llab-quvvatlash. Rivojlantiruvchi faoliyatlar misoli : sensor o'yinlar: suv, qum, fasol bilan o'ynash. Mayda motorika mashqlari: tugma terish, mozaika. Nutqni rag'batlantirish: qo'shiqlar, she'rlar, "savol-javob o'yinlari" . Emotsional rivojlantirish: ko'zga qarab gapirish, mehr berish. Har bir bola tug'ilgandan boshlab atrof-muhitni o'rganish, harakat qilish, gapirish, muloqot qilish va mustaqil shaxs sifatida shakllanish jarayonini bosqichma-bosqich boshdan kechiradi. Bu jarayon rivojlanish deb ataladi. Ba'zan ayrim bolalarda rivojlanishning ayrim sohalari sekinlashadi, noto'g'ri shakllanadi yoki umuman kechikadi. Bunday bolalar defektologiyada "rivojlanishda muammolari bo'lgan ilk yoshdagi bolalar" deb nomlanadi. Ilk yosh (0-3 yosh) bolaning eng muhim davri hisoblanadi. Chunki aynan shu davrda nutqning shakllanishi, harakat malakalari, idrok, diqqat, emotsional bog'lanish va ijtimoiy muloqot ko'nikmalari shakllanadi. Vaqtida aniqlash va to'g'ri rehabilitatsiya qilish kelajakdagi muammolarning oldini olish.[2]

Rivojlanishdagi muammo - bu bolaning yoshi uchun kutiladigan normal rivojlanish bosqichlariga yetib bormasligi yoki ularni sezilarli darajada kech egallashi.

Muammo 4 asosiy sohada namoyon bo'lishi mumkin:

Rivojlanish sohasi-namoyon bo'lishi mumkin bo'lgan belgilar:

Harakat (motorika)-o'tirish, turish, yurishning kechikishi. Nutq va til, so'z chiqmasligi, gapni tushunmaslik.

Kognitiv (bilish)-diqqatning pastligi, o'yin ko'nikmasi yo'qligi, Ijtimoiy-emotsional ko'zga qaramaslik, aloqa o'rnatmaslik. Agar bola uch va undan ortiq sohada qiyinchilikka duch kelsa, bu murakkab rivojlanish buzilishi hisoblanadi.

Ilk yoshda uchraydigan keng tarqalgan rivojlanish muammolari:

1. Nutq rivojlanishining kechikishi (Alaliya, Dizatriya). Bola tovush chiqarmaydi yoki so'zlar juda kech paydo bo'ladi. Oddiy ko'rsatmalarni ham tushunmasligi mumkin.

2. Autizm spektr buzilishi. Ko'zga qaramaslik, muloqotga qiziqmaslik, stereotip harakatlar (qo'l chayqatish).

3. Motor rivojlanishining kechikishi. Bola o'tirish, tirmashish, yurish kabi ko'nikmalarni o'z vaqtida bajarmaydi. Koordinatsiya past.

4. Sensor integratsiya buzilishi. Ovoz, yorug'lik, teginishga sezuvchanlik haddan tashqari yuqori yoki past.

5. Aqliy rivojlanishdagi kechikish. O'yin ko'nikmasi yo'q, diqqatni jamlay olmaydi, buyumlar bilan maqsadsiz harakat qiladi.

Rivojlanish muammolarining asosiy sabablar. Homiladorlik davridagi omillar anemiya, infeksiya, onaning stressi, spirtli ichimliklar, dorilar. Toshqin va tug'ruq jarayonidagi xavf, kislorod yetishmasligi (asfiksiya), erta tug'ilish. Tug'ilgandan keyingi xavflar yuqumli kasalliklar, bosh miya jarohati, irsiy omillar.[3]

Rivojlanish muammosini aniqlash belgilar (signal belgilar). Agar bola quyidagi belgilarni ko'rsatsa, darhol mutaxassisga murojaat qilish tavsiya etiladi:

3 oylikda ovoz va yuz ifodasiga javob bermaydi; boshini tik ushlay olmaydi.

6 oylikda o'yinchoqqa qiziqmaydi, kulmaydi, reaksiya bildirmaydi.

1 yoshda yurmaydi, biror so'z aytmaydi, ko'rsatgan narsaga qaramaydi.

2 yoshda so'z birikmalari yo'q, buyruqlarni tushunmaydi, boshqalarga qiziqmaydi.

3 yoshda nutqi tushunarsiz, rolli o'yinlar o'ynay olmaydi.

Diagnostika jarayoni. Ilk yoshdagi bolalarda rivojlanish muammosi quyidagi mutaxassislar tomonidan baholanadi: Defektolog-pedagog, logoped, nevrolog, psixolog.

Erta aralashuvning ahamiyati:

0-3 yosh davri - nevroplastiklik eng yuqori bo'lgan davr. Miyaning tuzilishi eng tez shakllanadi. Bu davrda qo'llab-quvvatlash kuchli ta'sir beradi. Nutq tezroq chiqadi.

Harakat ko'nikmalari paydo bo'ladi. Muloqotga kirishish yaxshilanadi. "Qancha erta boshlanilsa, natija shuncha yuqori bo'ladi."

Rivojlantiruvchi mashg'ulotlar:

Nutq-ovozli o'yinlar, artikulyatsiya mashqlari, takrorlash.

Sensorika-turli tuzilishdagi predmetlar bilan o'yin.

Motorika-to'p o'ynash, tirmashish, konstruksiyalar yasash.

Ijtimoiy muloqot-ko'z-kontakt o'yinlari, "qalaysan?", "ber" o'yinlari.[4]

1. Ilk yoshdagi rivojlanish muammolarining asosiy turlari.

1.1. Jismoniy (motor) rivojlanishdagi muammolar: O'tirish, emaklash, yurishning kechikishi. Mushaklar tonusining juda past yoki baland bo'lishi. Qo'l-halqa harakatlarning koordinatsiyasi sustligi. Asosiy sabablar: perinatal asfiksiya, erta tug'ilish, tug'ma nevrologik kasalliklar, mushak-suyak tizimi nuqsonlari.

1.2. Nutq va kommunikatsiya muammolari: Bir yoshda "ma-ma", "ba-ba" kabi bo'g'inlarning yo'qligi. Ikki yoshga borib sodda so'zlar ishlatmasligi. Tovush chiqarish, taqlid qilish qiyinligi. Sabablar: eshitish buzilishi, autizm spektri, intellektual rivojlanish kechikishi, oilaviy muhitda nutq stimulining kamligi.

1.3. Kognitiv (aqliy) rivojlanishdagi kechikishlar: Atrofdagi narsalarga qiziqish pasligi. Oddiy topshiriqlarni tushunmaslik. O'yin faoliyatining sustligi. Sabablar: irsiy sindromlar, metabolik kasalliklar, perinatal shikastlanishlar.

1.4. Ijtimoiy-emotsional rivojlanishdagi buzilishlar

Ko'z bilan kontaktning pastligi. Begonadan qo'rqmaslik yoki aksincha yuqori xavotir. Ota-ona bilan emotsional aloqaning sustligi. Sabablar: autizm spektri, emotsional e'tiborsizlik, travmalar.[5]

Rivojlanish muammolarining asosiy sabablari:

1. Biologik omillar.

Tug'ma genetik sindromlar (Daun sindromi va boshqalar). Asfiksiya, miya qon aylanishi buzilishi. Infeksiyalar (TORCH infeksiyalari). Erta tug'ilish va past tana vazni.

2. Psixologik-pedagogik omillar.

Rivojlantiruvchi o'yinlarning yetishmasligi. E'tibor va muloqotning kamligi. Parvarishning noto'g'ri tashkil etilishi.

3. Ijtimoiy omillar.

Oilaviy stress, zo'ravonlik. Ota-onaning uzoq vaqt farzandga vaqt ajrata olmasligi. Noqulay yashash sharoitlari.

3. Erta aniqlashning ahamiyati

Ilk yoshdagi bolada muammo qanchalik erta aniqlansa, terapiya shunchalik samarali bo'ladi. 0-3 yoshdagi miya juda plastiklikka ega, neyronlar faol shakllanadi. Shuning uchun erta tashxis quyidagi afzalliklarni beradi: Nutq va ijtimoiy muloqot

tezroq rivojlanadi. Harakat ko'nikmalaridagi cheklovlar kamayadi. Intellektual rivojlanish iziga tushadi.[6]

Xulosa

Rivojlanishda muammolari bo'lgan ilk yoshdagi bolalar - maxsus ehtiyojli emas, ularga maxsus yondashuv kerak bo'lgan bolalardir. Vaqtida aniqlash, erta aralashuv, ota-onaga qo'llab-quvvatlashi va defektolog-logoped yordami bola hayotida katta o'zgarish yasaydi. Rivojlanishda muammolari bo'lgan bolalar - kechikkan, ammo imkon bor bolalar. Ularga vaqtida yordam berilsa, ko'plab ko'nikmalarni tengdoshlari darajasiga yetkazish mumkin. Muhimi - erta tashxis, defektolog bilan muntazam mashg'ulotlar va ota-onaning mehrli yondashuvi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi. "Ilk yoshdagi bolalar rivojlanishini baholash mezonlari" metodik qo'llanma, 2022.
2. L.S. Vygotskiy. "Bolaning psixologik rivojlanishi." - Moskva, 2017.
3. G. A. Volkova. "Defektologiya asoslari." - Moskva, 2020.
4. M.R. Xodjayev, Sh. Toshpulatova. "Maxsus pedagogika va defektologiya." - TDIU, 2021.
5. Ochilidiev X., To'laganova K. Defektologiya va logopediya nazariyalari. - Toshkent: Fan, 2019.
6. Shirinboyeva M. Ilk yoshdagi bolalar rivojlanishi va pedagogika. - Buxoro: BDU nashriyoti, 2022.
7. Utepbergenov, MA va Roziqova, MOQ (2025). Oilada yashaydigan nizolarning bola ijtimoiylashuvi va tarbiyasiga ta'siri hamda nizolarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari. Fan va ta'lim, 6 (2), 320-325.
8. Roziqova, M. (2025). Millatlararo oilalarda voyaga yetayotgan bolalarning ijtimoiylashuvi va etnik identifikatsiya jarayonining psixologik xususiyatlari. MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI JURNALI, 3(11).
9. Olimovna, R. M. (2023). BAYNALMINAL OILALARNING IJTIMOYPSIXOLOGIK XUSUSIYATLARINI ORGANISH IJTIMOY PSIXOLOGIK MUAMMO SIFATIDA. PEDAGOGS, 48(2), 49-51.
10. Roziqova, M. (2025). Millatlararo oilalarda voyaga yetayotgan bolalarning ijtimoiylashuvi va etnik identifikatsiya jarayonining psixologik xususiyatlari. MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI JURNALI, 3(11).
11. Diyora Ahmadjonova, & Azimaxon Odiljon Qiz Kamolova (2025). Neyrografika mashg'ulotlari orqali ongosti muammolarini yechish va maqsadga erishish usullari tadqiq etish. Science and Education, 6 (3), 355-360.

12. Saidbek Dilmurod O'G'Li Aliqulov, & A.O.Kamolova (2025). Talabalar salomatligini saqlashda pedagogik faoliyatning ahamiyati. Science and Education, 6 (2), 313-319.

13. Kamolova, A. (2024). KASBIY KASALIKLARNI OLDINI OLISHDA VA OLIY TA'LIM MUASSASASI TALABALARINING SALOMATLIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH. " ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ АКМЕОЛОГИЯ" международный научно-методический журнал, 16(8).

10. Azimaxon, K. (2025). The Role of Pedagogical Techniques in Preventing Diseases That Arise Among Students During Professional Activities. Nvpubhouse Library for European International Journal of Pedagogics, 5(07), 57-59.